

YAPON TILINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA ZAMONAVIY O‘QITISH METODIKASI

Shasaidova Zilola Axbor qizi

1-bosqich magistranti

Tashkent International University of Education

ANNOTATSIYA

Yapon tili agglutinatив tuzilishga ega bo‘lib, xalqining nafaqat muloqot vositasi, balki yaponlarning madaniyati, qadriyatlari, an‘analari, hurmati va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qaratilib, dunyodagi eng murakkab va noyob tillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada yapon tilini o‘qitishning asosiy jihatlari, jumladan, zamonaviy tillar, usullar, yondashuvlar va o‘qituvchilar duch keladigan muammolarni, grammatika, lug‘at va yozuv tizimiga oid masalalarni o‘rganadi, shu bilan birga yapon tilining pedagogik strategiyalari bilan bir qatorda samarali o‘qitish metodikasini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: yapon tili, o‘qitish, metodlar, tilshunoslik, lug‘at, grammatika, yozish.

АННОТАЦИЯ

Японский язык имеет агглютинативную структуру и рассматривается не только как средство материального общения своего народа, но и как важный социокультурный феномен, отражающий культуру, ценности, традиции, уважение и мировоззрение японцев, и является одним из самых сложных и уникальных языков. В диссертации изучаются специфические методы преподавания японского языка, индивидуальные особенности современных языков, методы, продукция и проверка знаний учителей, вопросы, связанные с грамматикой, лексикой и системой письма, а также педагогические стратегии преподавания японского языка и эффективные методы обучения.

Ключевые слова: японский язык, преподавание, методы, лингвистика, лексика, грамматика, письмо.

ABSTRACT

The Japanese language has an agglutinative structure and is considered not only a means of communication for its people, but also an important socio-cultural phenomenon that reflects the culture, values, traditions, respect and worldview of the Japanese, and is considered one of the most complex and unique languages in the world. This article examines the main aspects of teaching Japanese, including modern languages, methods, approaches and problems faced by teachers, issues

related to grammar, vocabulary and writing system, as well as effective teaching methodologies along with pedagogical strategies for the Japanese language.

Keywords: *Japanese language, teaching, methods, linguistics, vocabulary, grammar, writing.*

KIRISH

Yapon tili butun dunyo bo'ylab o'rganish uchun eng qiziqarli, lug'atga boy va izlanuvchan tillardan biridir. Bu nafaqat tilshunoslarning, balki yapon madaniyati, an'analari, animelari va texnologiyasi ishqibozlarining ham diqqatini o'ziga jalb qiladi. Yapon tili xorijiy tillar orasida alohida o'rin tutadi, chunki uning tuzilishi, grammatikasi, iyerogliflari va qoidalari Yevropa va boshqa tillaridan tubdan farq qiladi.

Yapon tilini o'rganishdagi qiyinchiliklardan asosiysi shundaki, yapon alifbosi ひらがな (hiragana) va カタカナ (katakana) dan tashqari 漢字 (kanji) ni o'z ichiga olgan noyob yozuv tizimi ham mavjud. Shu bilan birga murakkab grammatikasi va lug'ati uni chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, yapon tili o'xshash tuzilishga ega bo'lgan tillarda so'zlashuvchilar uchun ham o'rganishda qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeiga qarab turli xil xushmuomalalik va hurmat, kamtarlik shakllari qo'llaniladigan tilda ierarxiyaning yuqori darajasi o'rganishda muhim element hisoblanadi. Yapon tilini o'rganayotgan talabalar fonetika, grammatika va so'zlarni o'rganish bilan bir qatorda, har bir leksik va grammatik element qo'llaniladigan ijtimoiy va madaniy kontekstlarni, kontekst ichidagi mantiqiy savollarga javob topa olishni ham o'rganishlari kerak.

Yapon tilini o'qitish o'ziga xos yuksak pedagogik maxorat va yondashuvlar, zamonaviy o'qitish metodikalarini talab etadi. Ta'lim jarayonini talabalar ehtiyojiga moslashtirish – tilni o'zlashtirishning eng qulay va samarali usullarini yaratishga yordam beradi. Bu jarayonda multimedia texnologiyalardan foydalanish, aqliy hujum va interfaol usullar talabalarni muhitga moslashish va jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolaning maqsadi yapon tili o'qituvchilari duch keladigan asosiy muammolarni o'rganish va yapon tilini o'qitishda zamonaviy metodikalar va yondashuvlarni muhokama qilishdan iborat. O'qitishda turli texnologiyalardan foydalanish usullari, madaniy kontekstning roli va tilni mukammal o'zlashtirish uchun madaniyatlararo o'rganishning ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi va talabalar duch keladigan muammolarni o'rganib, yapon tilini o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar beriladi.

1. Yapon tilining o'ziga xosligi va grammatikasi

Yapon tili Sharq tillari guruhiga mansub bo'lib, tuzilishi, nutq madaniyati va yozuv elementlari bilan boshqa tillardan keskin farq qiladi. Bu elementlarning barchasi birgalikda yapon tilini o'rganayotgan talabalar va o'qituvchilar uchun ham qiyinchiliklar ham imkoniyatlar yaratadi. Imkoniyatlardan biri shuki, yapon tilida nutq madaniyatini o'rganish tilning majburiy shartlaridan biri hisoblanib, talaba yapon tilida insho yozib uni juriylar oldida chiroyli va ravon, jestlardan foydalanib nutq so'zlab berishni o'rganadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchida notiqlik madaniyatini rivojlanishiga katta yordam beradi va kelajakda mahoratli notiq bo'la olish, turli notiqlik musobaqalarda qatnashib yuqori o'rinlarni egallay olish imkonini beradi. Yapon tilining o'ziga xosligi yana shundaki, gapda ko'pincha ega aytilmaydi, so'zlashuvda suhbatdoshning yoshi va ijtimoiy mavqeiga qarab til shakli o'zgaradi.

Yapon tili grammatikasi o'zining agglutinativ tuzilishi, qat'iy tartibi va kontekstga tayanishi bilan boshqa tillardan yaqqol ajralib turadi. Gapning asosiy mazmuni kesimda jamlanib, so'zlar asosan qo'shimchalar orqali o'zgaradi.

Murakkab fe'llar — yapon tilida fe'llarga qo'shimcha shakllar qo'shilishi orqali ma'noga chuqur qatlamli grammatik va semantik ma'no beriladi. Masalan, grammatika tahliliy va semantik birliklarni birlashtiradi.¹

Kesim doimo gapning oxirida keladi va gapning ma'nosini belgilaydi. Masalan :

私はパンを食べます (watashi wa pan wo tabemasu) Men non yeyman

Yuklamalar so'zlarning gapdagi grammatik vazifasini aniqlaydi va ular mustaqil ma'noga ega emas.

Asosiy yuklamalar:

- wa (は) — gap mavzusi
- ga (が) — ega (ta'kidlash uchun)
- o (を) — to'g'ridan-to'g'ri to'ldiruvchi
- ni (に) — yo'nalish, vaqt, mavjudlik
- de (で) — harakat joyi yoki vosita
- e (へ) — yo'nalish
- kara / made (から / まで) — boshi / oxiri

Yapon tilida fe'llar shaxs va songa qarab o'zgarmaydi, doim gap so'nggida kelib, zamon, inkor, mayl qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Yapon tilida jins kategoriyasi mavjud emas, ko'plikni bildiruvchi so'zlar esa kontekst orqali aniqlanadi yoki ~たち

¹ Taro Kageyama. Morphology in Japonic Languages. <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780199384655.013.538>
Published online: 28 February 2020

(tachi), ~ ら (ra) qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Yapon tilida sifatlar fe'lga o'xshash tarzda o'zgarib, zamon va inkor shaklini qabul qiladi.

2. Yapon yozuv tizimi va talaffuz

Yapon yozuv tizimi dunyodagi eng ko'p qatlamli va murakkab yozuv tizimlaridan biri sanalib, 3 xil yozuv turini o'z ichiga oladi: Hiragana, katakana va kanji. Hiragana 46 asosiy belgidan iborat bo'lib, asosan yaponlarning ism-sharflari, yaponcha so'zlar va grammatik elementlarni yozishda foydalaniladi, katakana esa xorijiy ismlar, chet tilidan o'zlashtirilgan so'zlar va texnik terminlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Kanji esa xitoy tilidan kirib kelgan ierogliflar bo'lib, har bir ieroglifni ikki xil o'qilishi mavjud, ya'ni 音読 (onyomi) - xitoycha o'qilishi, 訓読み (kunyomi) - yaponcha o'qilishidir. Kanji yapon tiliga ifodaviylik va ixchamlik baxsh etib, kontekstga qarab bir nechta ma'noni anglatadi va murakkab tushunchalarni qisqa tarzda ifoda etish imkonini beradi. Kanjini o'rganish talabalar uchun eng murakkab jarayon hisoblanib, minglab ierogliflarni xitoycha va yaponcha o'qilishini yod olishni talab etadi.

Yapon tilinig talaffuzi ham o'ziga xos va yevropa tillariga nisbatan soddaligi tufayli boshlang'ich bosqichda o'rganishni osonlashtiradi. Keyingi bosqichlarda murakkablashib borib, intonatsiya va urg'uga oid qiyinchiliklar vujudga keladi va ular tilni mukammal egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yapon talaffuzidagi yana bir qiyinchiliklardan biri cho'ziq tovushlar hisoblanib, ular cho'ziq aytilishi orqali ma'noni o'zgartirish xususiyatiga ega. Misol uchun:

おばさん (obasan) - xola

おばあさん (obaasan) - buvi

Yapon tilining talaffuzida huddi o'zbek tili kabi ikki undoshli tovushlar mavjud va ular ~っ (tsu) tovushi bilan ifodalanadi. Yapon talaffuzi oddiy tovush tizimiga ega bo'lsa-da, ohangdagi nozik farqlar va cho'ziq uni mukammal o'zlashtirishni talab etadi. Yapon tilini tushunish va ravon nutqiy so'zlashuv – yapon tilining asosiy kaliti hisoblanadi.

3. Yapon tilini o'qitishda kommunikativ-kognitiv metod

Kommunikativ – kognitiv yondashuv – ta'lim jarayonini o'quvchilarning faol muloqot orqali bilim olishlariga yo'naltiruvchi yondashuv bo'lib, unda til kommunikatsiyasi va bilish jarayonlari birga integratsiya qilinadi. Bu yondashuvning maqsadi shundaki, o'rganuvchi tilni nafaqat oddiy grammatik qoidalar bilan o'rganadi, balki uni amaliy muloqotda qo'llash uchun ongli tarzda idrok etadi va foydalanadi. Bunda til kompetensiyasini shakllantirishda kognitiv faoliyat, -fikrlash,

tahlil, xotira va muloqot kontekstini tushunish jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.²

Yapon tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarining maqsadi talabalarda kommunikativ-kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Kommunikativ yondashuv real va kundalik hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarni yaratish orqali tilni yanada chuqurroq o‘rganish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda talabaga tushunarli va amaliy dars o‘tish imkonini beradi. Bu orqali talabalar til vositalaridan samarali foydalanish, turli muloqot va vaziyatlarda erkin fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yapon tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta bo‘lib, onlayn kurslar, mobil ilovalar, electron lug‘atlar, videodarslar va shu kabi boshqa raqamli resurslar talabalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishlari va til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Yapon tilini o‘rganish bilan birga yapon madaniyati, tarixi, adabiyoti va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini o‘rganish ham til o‘rganish kompetensiyalarini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida muloqot kontekstini chuqurroq anglash va til o‘rganish motivatsiyalarini oshirishda yordam beradi.

4. Yapon tilini o‘qitishdagi muammolar va murakkabliklar

Chet tilini qiziqarli va tushunarli o‘qitishning o‘zi bir san’at hisoblanib, yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Yapon tili grammatik jihatdan o‘zbek tiliga o‘xshash bo‘lib, o‘zbek millati talabalariga yapon tilini o‘rganish Yevropa tillariga nisbatan oson. Til o‘rganish jarayonidagi asosiy muammolaridan biri Yevropa tillari, xususan ingliz yoki rus tili tizimidan yapon tiliga o‘tishning murakkabligidir. Yevropa tillarida asosan kesim gapning boshida keladi, yapon tilida esa huddi o‘zbek tili kabi gapning ohirida keladi va bu esa o‘z navbatida rus yoki ingliz tilidagi kontekstlarni yapon tiliga tarjima qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan:

Men kitob o‘qidim

私は本を讀みました

I read a book

Я прочитал книгу

Ayrim mamlakatlarda yapon tili bo‘yicha malakali pedagoglarning yetishmasligi ta’lim sifati va rivojiga salbiy ta’sir etmoqda. Yapon tili o‘qituvchilari faqat tilni mukammal bilishi emas, balki zamonaviy pedagogik metodlar va kompetensiyalar, pedagogik malakaga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

² Dilorom T. “COGNITIVE-COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. ISPCIEI, p. 2, Jun. 2021.

XULOSA

Har qanday xorijiy tilni o'qitish singari, yapon tili ham pedagogik mahorat, maxsus yondashuv hamda samarali metodlarni tanlash va ta'lim jarayonini puxta tashkil etishni talab etadi. Yapon tili grammatikasi, yozuv tizimi va talaffuzi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi tufayli talaba va pedagogdan yuksak darajadagi mas'uliyat va yuqori tayyorgarlikni talab qiladi. Yapon tilini o'qitishning o'ziga xosligi shundaki, zamonaviy metodikalari faqat nazariy bilimlarni o'rganishga emas, amaliy kommunikativ-kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan. Kommunikativ yondashuvda real hayotiy vaziyatlarda tilni kundalik hayotda amaliy qo'llashga va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi o'quv materiallarini chuqurroq anglash va ta'lim jarayonini mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi. Yapon tilini o'rganishda notiqlik san'atiga alohida e'tibor qaratilib, har bir talabaning nutqi ravon va chiroyli bo'lishi uchun dars mobaynida mustaqil insho yozdirish va uni ravon taqdimot qildirish metodikasi qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Interaktiv resurslarni tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlanishiga xizmat qilib, ta'lim sifatini oshishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'nil, P. Методы преподавания японского языка. Москва: Nauka, 2020.
2. Federov, I. Японский язык: от азов до мастерства. Sankt-Peterburg: Lingvistika, 2019
3. Hiroshi Ya. Yapon madaniyati: tilga ta'siri. Tokio: Kitob, 2018.
4. Dilorom T. "COGNITIVE-COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. ISPCIEI, p. 2, Jun. 2021.
5. Karimova Sh. Psixologik edebiyat çözümlemesine dair teorik bir deneme: Hakkâri öncesi Ferit Edgü öyküleri // Akademik Sosyal Araştırmalar Dergisi. – 2024. – T. 12, № 149. – B. 368–381. – DOI: 10.29228/ASOS.74952.
6. Taro Kageyama. Morphology in Japonic Languages. <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780199384655.013.538> Published online: 28 February 2020